O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2025 yil “22”dekabr **02-28/31670-son**

Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy tashkilotlar rahbarlariga

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (ma’lumot uchun)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 19-dekabrdagi 01-07/5367-sonli xatiga muvofiq, yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish bo‘yicha tanlovlar e’lon qilinganini ma’lum qilamiz.

Mazkur tanlovlar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida quyidagi xorijiy tashkilotlar uchun o‘tkazilmoqda:

1.AQShning Dallas shahridagi Texas universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106892);

2.Malayziyaning “Sultan Idris” universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106891);

3.Eron Islom Respublikasining Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari, ta’lim va kengaytirish tashkiloti (AREEO) (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106865);

4.Jeneva xalqaro instituti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106880);

5.Rossiya Federatsiyasining “Xalqaro kvant optikasi va kvant texnologiyalari” tashkiloti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106887);

6.Tatariston Respublikasining Qozon Federal universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106883);

7.Tatariston Respublikasining Innopolis universiteti (https://gov.uz/oz/innovation/contest/view/106877).

Shu munosabat bilan, Sizdan stajirovka o‘tashga ehtiyoji mavjud bo‘lgan munosib nomzodlarni saralab olishni; nomzodlarning hujjatlarini Nizom talablariga muvofiq to‘liq va haqqoniyligini ta’minlagan holda **internship.ilmiy.uz** platformasi orqali Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etilishini ta’minlashingizni so‘raymiz.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: KW57656699

Nomzodlarni tavsiya etish jarayonining xolisligi va hujjatlarning sifatli tayyorlanishi uchun tashkilot rahbarlari shaxsan mas’ul ekanligi eslatib o‘tiladi.

Vazirning birinchi o‘rinbosari **A. Boboyev**

Ijrochi:D.Abdullayeva
Tel: +998712031519/130